

“TEXNOLOGIYA VA MATERIALSHUNOSLIK” AMALIY DARS JARAYONLARIDA YANGI “INTERAKTIV O‘QITISH” PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Rashidov Asomiddin Zayniddinovich

MRDI instituti

Libos dizayni kafedrası dotsenti

a.rashidov3107@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada, “texnologiya va materialshunoslik” amaliy dars jarayonlarida yangi “interaktiv o‘qitish” pedagogik texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati, talabalarning faoliyatiga kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish tizimidagi o‘rni muallif tomonidan tahlil olib borilgan.

Kalit so‘zlar: *innovatsion ta‘lim, kasbiy tayyorgarlik, dizayn ob'ekti, dizayn, ta‘lim.*

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется место и значение новых педагогических технологий "интерактивного обучения" в процессе практических занятий по "технологии и материаловедению", а также их роль в системе развития профессиональной подготовки студентов.

Ключевые слова: *инновационное образование, профессиональная подготовка, объект дизайна, дизайн, образование.*

ABSTRACT

The article analyzes the place and significance of new pedagogical technologies of "interactive learning" in the process of practical classes on "technology and materials science," as well as their role in the system of professional training development for students.

Keywords: *innovative education, professional training, design object, design, education.*

KIRISH

Ta‘limda yuqori samaradorlikka erishish uchun o‘qitishning noan‘anaviy metodlaridan, ya‘ni zamonaviy pedagogik texnologiyaning turli metodlaridan dars mavzusiga mos ravishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, o‘qituvchining mashaqqatli mehnati bilan bosqichma-bosqich mahorat pillapoyalarini egallab, uning yuksak pedagogik darajasiga ko‘tarilishidir. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta‘lim tizimiga yo‘naltirilayotgan

katta hajmdagi investitsiyalar O‘zbekistonning eng ilg‘or mamlakatlar qatoridan joy olishiga zamin yaratmoqda O‘zbekistonning ta‘lim modeli eng zamonaviy talablarga javob beradigan ta‘lim muassasalarini barpo etish bilangina cheklanib qolmasdan, ushbu model avvalambor, sifatga, ya‘ni o‘qituvchilar, o‘quvchilar, talabalar, o‘quv dasturlari va pirovard natijada bilimlar sifatini oshirishga asoslangandir. Bundan tashqari, globallashuv bilan bog‘liq ehtiyojlar ham hisobga olingan holda ishlab chiqilgan mazkur ta‘lim modeli O‘zbekistonning Osiyoda, umuman, jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashini ta‘minlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma‘naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan, biz ilgari ko‘rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Pedagoglardan, bugungi murakkab zamonda yoshlarga zamon ruhida ta‘lim berish bilan bir qatorda, bashariyatning, Vatanimiz va xalqimizning ertangi kunini o‘ylab, yoshlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag‘rikenglikka da‘vat etishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni ham amalga oshirishi talab etiladi.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi va ushbu dastur asosida olib borilgan islohotlar natijasida ta‘lim sifati va samaradorligi keskin oshdi. Ta‘lim muassasalarining moddiy-texnik bazalari mustahkamlandi. Shuni qoniqish bilan aytish mumkinki, zamonaviy ta‘lim tizimining joriy etilishi bugungi kunda ijobiy natijalar bermoqda. Endigi, biz pedagoglarning vazifasi zamonaviy texnik ta‘minotga ega ta‘lim muassasalarida talablar darajasida innovatsion ta‘lim texnologiyalari asosida yoshlarimizga ta‘lim-tarbiya berishdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Pedagogik texnologiyani doimiy bir xil holda (hatto ma‘lum qisqa vaqt oralig‘ida ham), ya‘ni oldindan loyihalashtirilgan jarayon deb bo‘lmaydi. Bir so‘z bilan aytganda, pedagogik texnologiyani bir qolipga sig‘adigan, aniq bir o‘zgarmas loyiha deb bo‘lmaydi. Chunki har bir auditoriya, har bir guruh uchun tinglovchilarning ma‘lumoti, ilmiy salohiyati, yoshi, jinsi va boshqa ko‘rsatkichlarga bog‘liq holda, kerak bo‘lsa guruhdagi har bir tinglovchi uchun alohida pedagogik yondoshuv va uning texnologiyasi talab etiladi. Masalan, pedagog bir mavzuni maktab bolalariga boshqa texnologiya asosida, oliy o‘quv yurti talabalariga boshqa texnologiyada, ishlab chiqarishdagi muhandis-texnik xodimlarga boshqa va oliy o‘quv yurti pedagoglariga boshqa texnologiya asosida o‘tishi talab etiladi. Shuningdek, oldindan ma‘lum bir guruhda dars o‘tishda, pedagogning oldindan loyihalashtirib kelgan dars o‘tish texnologiyasi, auditoriyaning tayyorgarligi, undagi savol-javoblar natijasida yuzaga keladigan vaziyatlar asosida o‘zgarishi ham mumkin. Shundagina pedagog aniq ko‘zlangan natija - ya‘ni o‘z bilimini tinglovchilar

tafakkuriga etkazib, ularda rivojlantiruvchi faol faoliyat uyg'ota oladi. Menimcha o'qitishdan maqsad, tinglovchiga oldindan aniq, bor narsani o'rgatish emas, balki o'qishni o'rgatishdir. Chunki, biz bugun talabaga o'rgatayotgan texnik vositalar, ayniqsa axborot –kommunikatsiya tizim texnikalari tezda ma'naviy eskiradi, demak bitiruvchi o'zi mustaqil o'qib, yangi texnik vositalar bilan ishlash sirlarini bilishi, shunga o'zida amaliy ko'nikma hosil qilishi lozim.

Ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalar va o'qitishning zamonaviy texnik vositalarini qo'llanilishi kadrlar sifatiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni rivojlanishi esa bevosita axborot texnologiyalari rivojiga, ulardan ta'lim beruvchilar va oluvchilarning foydalana bilish darajasiga bog'liqdir. Demak, pedagogik texnologiyalarni rivoji kadrlar tayyorlash sifatiga, kadrlar sifati esa ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashuviga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalari bir-biri bilan uzviy bog'liq holda, axborot texnologiyalari rivoji asosida takomillashib borishi, shuningdek axborotlar makoni ta'lim va ishlab chiqarish ma'lumotlari bilan boyitilib borilishi zarurdir. Yuqorida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda axborot, pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalari o'rtasidagi bog'liqlik sxematik ravishda keltirilgan

Pedagogik innovatika (yangilik kiritish, innovatsiya) – ta'lim muassasasining faoliyatiga nisbatan barqaror yangilik elementlarini kiritib, uning rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishiga samarali ta'sir etuvchi maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishdir.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar aynan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchitalabalar (tinglovchilar)ga muayyan fan (mavzu) bo'yicha bilim berish va shaxsini shakllantirishga qaratilgan o'qitishning zamonaviy uslublari va texnik vositalari majmuidir. Pedagogik yangiliklarni tarqalish omillari.

Pedagogik yangiliklarni tarqalish omillari turli omillarga bog'liq bo'lib, ularni quyidagi 3 guruhga ajratishimiz mumkin:

- Jamiyatda pedagogik g'oyalarga bo'lgan munosabat, xalq ta'limi sohasidagi davlat siyosati: keng rejali ijtimoiy sharoitlar.
- Aniq yo'nalishdagi davlat va jamiyat institutlari faoliyati-ommaviy axborot vositalari, o'quv yurtlari, ta'lim organlari, mustaqil ijodiy pedagogik uyushmalar: xususiy ijtimoiy sharoitlar.
- Pedagogik yangiliklarni yaratuvchi va targ'ib qiluvchilarning shaxsiy xususiyatlari, jumladan ushbu kishilarni jamiyatdagi tutgan o'rni, ta'lim arboblari, o'qituvchilar ommasi va ijodiy pedagoglar nigohida tutgan o'rni: shaxsiy omillar.

Interaktiv o'qitish - talaba o'zida oldin mujassamlashgan tajribadan foydalangan holda, o'quv jarayonida faol ishtirok etadi, mashg'ulot davomida

shaxsiy rol o‘ynab, yangi tajribalar orttiradi, olgan tajribalari asosida darsni tahlil qilib, o‘ziga kerakli muhim materiallarni oladi hamda o‘zining kundalik faoliyati bilan bog‘laydi.

Interaktiv so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib, “inter” – o‘zaro (vzaimный), “act”- faoliyat qilmoq (deystvovat) ma’nosini bildiradi. Interaktivlik, bu o‘zaro munosabatda bo‘lmoq, dialog rejimida o‘qimoq ma’nosini bildiradi. SHu sababli interaktiv o‘qitish-dialogli o‘qitish demakdir. Dialog an’anaviy o‘qitish uslublarida ham mavjud, jumladan “o‘qituvchi-o‘quvchi”, “o‘qituvchi-o‘quvchilar guruhi” ko‘rinishida. Interaktiv o‘qitishda esa dialog “o‘quvchi-o‘quvchi”, o‘quvchi-o‘quvchilar guruhi”, “o‘quvchi-auditoriya”, “o‘quvchilar guruhi-auditoriya” (guruhlar prezentatsiyasi), “o‘quvchi-kompyuter” kabi ko‘rinishlarda ham bo‘ladi. O‘quvchi ma’ruzada faqat “passiv” tinglovchi sifatida emas, balki “aktiv” ishtirokchi sifatida qatnashadi. Interaktiv o‘qitish texnologiyasi an’anaviy ma’ruza o‘qish uslubini ko‘zda tutmaydi va shu bilan bir qatorda ma’ruza darslarini amaliy darslarga qarama-qarshi qo‘ymaydi. Interaktiv o‘qitishda ma’ruza va amaliyot bir butun mashg‘ulotning qismlari deb qaraladi va bu o‘qituvchi hamda talabaning o‘zaro ta’siri hamda talabalarning mashg‘ulot davomida faol ishtirok etish darajasi bilan belgilanadi. Ma’lumki, an’anaviy ma’ruza darslarida o‘qituvchi faolligi ta’minlansa, amaliy mashg‘ulotlarda talaba faolligi talab etiladi. Interaktiv uslubda o‘qituvchidan mashg‘ulot davomida talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir darajasining bir ko‘rinishidan ikkinchisiga mavzuga bog‘liq holda ustamonlik bilan ravon o‘tishi talab etiladi.

Har bir pedagog o‘z ustida mukammal ishlashi, zamondan orqada qolmasligi, o‘qitishning innovatsion texnologiyalarini puxta bilishi va o‘z faoliyatida joriy etishi zarur. Hozirgi kunda eski an’anaviy uslubdagi darslar yoshlarimiz ehtiyojini qondirmaydi, ular bunday darslarni tinglagisi kelmaydi. Chunki, fikrlash va tafakkur boshqa, aynan biror fan bo‘yicha bilimga ega bo‘lish boshqa. Fikrlash va tafakkur tabiiy aql mahsuli, bilim olish esa –bu ta’lim muassasi, pedagog faoliyati mahsuli. Yoshlarimizni fikrlashi va tafakkuri bundan 15-20 yil avvalgi yoshlarga nisbatan ancha baland va tezdir. Agar pedagog yoshlar bilan hamnafas fikrlamasa, zamon yangiliklariga va talablariga yoshlardanda tez bo‘lmasa, uning ta’lim–tarbiya sohasidagi faoliyati samarasiz bo‘lib qoladi. SHu sababli, ushbu qo‘llanmada zamonaviy ta’lim texnologiyalarining ayrim boshlang‘ich jihatlari, interaktiv o‘qitish usullari, ularni mashg‘ulot davomida qo‘llash yo‘llari, zamonaviy ma’ruzalar, rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari, masofaviy va korporativ ta’lim texnologiyalari, masofaviy ta’limning didaktik asoslari to‘g‘risida ma’lumotlar qisqa bayon etilgan.

REFERENCES

1. Umarova, G., & Rashidov, A. (2024). IJODIY FAOLIYAT UCHUN, O 'QUV MASHG 'ULOTLARINING O 'ZIGA XOS USLUBIY CHIZMASIGA EGALIGI, IJODKORLARNING EKSPERIMENTAL ISHIGA KATALIZATOR BO 'LIB XIZMAT QILISHI OMILLARI. *Farg'ona davlat universiteti*, (2), 147-147.
2. ABDULLAYEVA, F., UMAROVA, Z., & RASHIDOV, A. (2024). ZAMONAVIY MODA TENDENSIYALARINING SOHA DOIRASIDAGI TA'LIM JARAYONLARI MODERNIZATSIYASIDAGI AKTUALLIGI. *News of UzMU journal*, 1(1.4. 1), 49-52.
3. Rashidov, A. Z. (2022). MODA FENOMENI: TARIXI VA RIVOJIGA DOIR AKTUAL TAMOYILLAR. *PEREKRYOSTOK KULTURBI*, 4(3).
4. Yunusxodjaeva, S. A. (2019). Yosh rassomni o 'qitishda samarali usullardan foydalanish. *PEREKRYOSTOK KULTURBI*, 1(4).
5. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, PEDAGOGIK KOMPETENTLIK: NAZARIYA VA AMALIYOT, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, Gulmira Rifovna Tojiboeva
6. Zaripova, M. A. (2020). MODEL YARATISHNING ISHLAB CHIQRISH MUNOSABATLARIDA ISHTIROKI. *PEREKRYOSTOK KULTURBI*, 2(4).
7. Jabborova, O. M., & Umarova, Z. A. (2021). "TARBIYA" FANINI KLASTER USULIDA O'QITISHDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISH.
8. Komilova X. X., Vohidova U. A. "Loyihalash", OO'Yu uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent : Fan va texnologiya.
9. http://vtk34.narod.ru/petruk_osnovimodelirodejdi/book/book12.htm
10. https://studref.com/638080/kulturologiya/ispolzovanie_tsveta_kollektsi
11. Umarova, G. E. (2024). DIZAYNERNING PROFESSIONAL FAOLIYATIDA NAZARIY VA USLUBIY YONDASHUVLAR. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 17(2), 137-140.